

INKLYUZIV TA'LIM VA UNING AHAMIYATI

Davronova Laylo O'ktam qizi

Qashqadaryo viloyati Koson tuman "Inson"

ijtimoiy xizmatlar markazi psixologi

Annotatsiya: Inklyuziv ta'lim inglizcha "inclusive" inclusion; uyg'unlashmoq, qamrab olmoq ma'nolarini beradi. Imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan bolalar bilan sog'lom bolalarni birgalikda o'qitish jarayoni inklyuziv ta'lim hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan har qanday holatlarni istisno etadigan, barcha uchun teng muomalani ta'minlaydigan, lekin maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun zarur sharoit yaratadigan mafkuraga asoslanadi. Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarining farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir.

Kalit so'zlar: Ta'lim, bolalar, nogironlar, maxsus ta'lim, umumiy ta'lim, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy ajratish, maktab, nogironlar, yaxlit, jins, umumiy ta'lim muassasalari.

KIRISH

Inklyuziv ta'lim bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etish demakdir. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktablarda bilim olishlari barcha imkoniyatlardan foydalana olishi lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin hudud atrofida joylashlashgan har qanday maktablarda ta'lim olishi, o'zlashtirish qiyinlik qilsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi doirasida tashkil etiladi. Maktabda inklyuziv sinfdagi alohida ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni alohida hisobga olgan holda tibbiyot xodimi tomonidan o'quvchilarga maxsus tibbiy yordam ko'rsatiladi. Tibbiy xodimlar o'quvchilarning ruhiy asab holatini tekshiradi, zarurat bo'lganda davolash muolajasini olib boradi. Korreksion

pedagogik ta'lim jarayonida bolalar sog'lig'ini nazorat qiladi hamda aqliy va jismoniy yuklamaning me'yorini belgilaydi, o'quvchining salomatligi to'g'risida ota onalariga maslahat beradi va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ularni sog'lomlashtirish ishlarini olib boradi. Bunday ta'lim tizimda barcha bolalarga asosiy ta'lim olishida teng imkoniyatlar beriladi. Inklyuziv ta'lim tizimida o'quvchilarning kasbiy mahorati va hamkorligi avvalo, alohida extiyojga muhtoj bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq.

Ta'lim sifati va samaradorligi oshirilgan tizimda erkin va yuqori natijalarga erishiladi. Ta'lim samaradorligini oshirish uchun o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan uslublaridan foydalanish mumkin, shuningdek, maktabda bolalar uchun qulay sog'lom va xavfsiz muhit yaratish va binobarin, ular ota onalari yaqinida, ularning ko'magida salohiyatini to'liqroq namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Inklyuziv ta'lim mavjud jismoniy, intellektual, ijtimoiy, lingvistik va boshqa xususiyatlarga qaramay, har bir bolaga umumiy yaxlit ta'lim va tarbiya rivojlanish va ijtimoiylashuv jarayoniga qo'shilish imkoniyatini beradigan ta'lim. Bu esa o'sib ulg'aygan shaxsning, jamiyatdagi teng huquqli a'zosi bo'lishiga imkon beradi, ajralish va yakkalanish xavfini kamaytiradi. Inklyuziya alohida ta'limga muhtoj bolalarni ommaviy maktablarda kiritish imkoniyatini beradi, bu yerda har bir bolaning ta'lim jarayonida to'liq ishtirok etishi uchun barcha to'siqlar olib tashlanishi muhim hisoblanadi. Bolaga imkon beradi ,o'ziga ishonishga va dunyoga ishonishga yo'l ochadi.

Nuqsonli bolalarga qulayliklar yaratish, bola extiyojlari e'tiborga olinadi. Imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rganishni rag'batlantirishda oila ishtiroki muhim. Inklyuziv ta'lim jarayonida ota onalar bilan ishlash ham muhim. Ta'kidlash joizki , alohida ehtiyojli bolalarning ota onalariga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron bolalar, nuqsonlarini bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir

qatorda bilim konikmalarga ega qilish, kasb hunarga o'rgatish ishlarini parallel olib borish talab etiladi. Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish uchun umumiy ta'lim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritilishi muhimdir. Umumiy ta'lim va maxsus ta'lim o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojida bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Jamiyatda nogiron bolalar, maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolmaydilar. Ta'limda tenglik bo'lishi, barcha bolalarning birgalikda ta'lim olishi, maxsus yordamga muhtoj bolalarning barcha tengdoshlari bilan uyg'unlashgan holda ta'lim olishini ta'minlaydigan tizimdir.

Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi. Inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim –tarbiya ishlarining samarali bo'lishi, yaxshi yutuqlarga erishishda maktab psixologi, pedagog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi uzviy bog'liq bo'lishi lozim. Inklyuziv ta'lim tizimida olib borilgan usullar, samarali amallar o'z natijasini ko'rsatadi. Ta'lim ishtirokchilariga har tomonlama manfaatli bo'ladi.

Sharqning mashxur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri tug'risidagi qarashlari inklyuziv talim rivojlanishining metodologik bazasi xisoblanadi. Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. 1970-1980 yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi.

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish,

ularning imkoniyatiga yunaltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik xuquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va saglom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy xaëtgä erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarni oilalardan ajramagan xolda yashash xuquqini ruëbga chiqarish;

- jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va usmirlarga nisbatan dustona va mexr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'limning muammolari. Ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha davlat normativ xujjatlarida qayd qilinmaganligi; Nogiron bolalarga nisbattan salbiy munosabat; Imkoniyati cheklangan bolalarning hamjamiyatda ko'rinmaslik muammosi; Imkoniyati cheklangan bolalarning maktabda ko'rinmaslik muammosi; Moddiy mablag' muammolari; Ta'lim muassasalarini moslashtirish; Sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi; Kambag'allik; Jinsiy tafovutlarga qarab kamsitish; Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi; Favqulodda vaziyatlar, mojarolar, qochoqlar; Kadrlar masalasidagi muammolar. Haqli savol tug'iladi, nima uchun imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb etish kerak? Yuqorida keltirilgan dalillarni hal etib inklyuziv ta'lim tizimiga o'tishga qanday zaruriyat bor?

Darhaqiqat, bu ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi.

Ammo bu ta'lim tizimining nafli jixati juda ko'p ular sirasiga qo'yidagilar kiradi:

- ✓ Inklyuziv ta'lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;
- ✓ Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;
- ✓ Kamsitishlarni oldini oladi;
- ✓ Inklyuziv ta'lim yanada inklyuzivlikka olib keladi.

Inklyuziv ta'limning prinsiplari: 1. Insonning qadr qimmati, uning qobiliyati va yutug'iga bog'liq emas. 2. Har bir inson o'ylash va xis qilish qobiliyatiga ega. 3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega. 4. Har bir kishi bir-biriga muxtoj.

5. Shaxsning to'liq va haqiqiy ta'lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi. 6. Hamma kishilar o'z tengdoshlarini qo'llab quvvatlashga muxtoj. 7. Hamma ta'lim oluvchilarni yutuqqa erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas, balki nimanidir qila olishidir. 8. Hamkorlik qilish kishi ha'etini har tomonlama ko'chaytiradi. Inklyuziv ta'lim tizimi qo'yidagi ta'lim muassasalarni o'z ichiga oladi; maktabgacha umuta'lim, umu o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-xunar va oliy ta'lim. Bu ta'lim muassasalarining maqsadi bolalarning ta'lim olishi va kasb-xunarga tay'rlashda ularning o'rtasidagi to'siqlikni bartaraf etib ochiq ta'lim muxitini yaratishdan iborat. Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integratsiyalashgan ta'lim tizimidan uzinig mazmun – moxiyati, maqsadi, vazifalari va xarakat dasturi bilan farqlanadi.

Bolaning tarbiya va o'quv faoliyatida orqada qolishi psixik funksiyalarni o'zlashtirmaganligi natijasidir. Masalan, bolaning kiyim kiyishida ketma-ketlikning buzilishi uning xotirasi zaifligidan emas, balki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan malakalarni egallamaganligi tufayli ro'y beradi. Bunday psixik muammoni psixoreksiyalash usullari bilan birga bolaga kiyimlarni to'g'ri ketmaketlikda kiyish tasvirlangan rasmlar taqdim etilishi mumkin. L.S.Vigotskiy ijtimoiy muhit sog'ligi imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun birinchi darajali ahamiyatga egadir, degan g'oyani ilgari suradi. Xuddi shuningdek, u imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishini ildizi yomon o'simlikka o'xshatadi. «Uning ingichkagina ildizlari oziqlantiruvchi tuproqning qatlamlari va shakliga mos kelmaydi. Ular o'zo'zicha tuproqning oziqa beruvchi qatlamlariga yetib borolmay, quruq va zaharli qatlamga kirib qoladi. Bunday o'simlik muvofiq sharoitlarda gullashi mumkin edi, biroq odatdagi sharoitda taraqqiyotning cho'qqisiga yetmasdan, bujmayib so'lib qoldi», deydi.

Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini har bir millat va elatning o'ziga xos tomonlari, milliy an'analari, urf-odatlari, davlatning maqsad-vazifalari hamda tarbiyalanuvchilarning ruhiy va jismoniy rivojlanishidagi xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Imkoniyati cheklangan bolalarda kattalar

bolaning rayiga, mustaqil bo'lishiga qarshi turmasdan, mumkin qadar istagi, intilishiga yordam bersalar, uning shaxsini shakllantirish jarayonidagi qiyinchiliklar o'z-o'zidan barham topadi. Imkoniyati cheklangan bolada o'jarlik, qaysarlik, itoatsizlik xususiyatlari paydo bo'lishi bu kattalarning haddan tashqari paypaslaganliklari oqibatida vujudga keladi. Psixolog olimi L.M.Krijanovskaya imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya berishda psixologik korreksiyalash metodlari orqali tarbiyalash yo'llarini keng yoritib bergan. Uning fikricha, inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya ishlarining samarali bo'lishi, yaxshi yutuqlarga erishishda maktab psixologi, pedagog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi uzviy bog'langan bo'lishi lozim

XULOSA

Inklyuziv ta'lim tizimida jahon miqyosida amaliyotga joriy qilish borasida bugungi kunga qadar ham juda ko'plab muammolar va to'siqlar mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: Salbiy munosabat; Hamjamiyatda ko'rinmaslik; Moddiy mablag' muammolari; Jismoniy moslashtirish; Sinfdagi o'quvchilar soni; Qaramlik; Jinsiy belgilarga qarab kamsitish; Favqulodda vaziyatlar, mojarolar va qochoqlar. Salbiy munosabat-maxsus ehtiyojli bolalarning umumta'lim muassasalari tizimida ta'lim tarbiya olaishlari uchun eng katta to'siq bo'lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a'zolari, o'qituvchilar, umumta'lim muassasalari hodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalarning o'zlaridagi umumta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya olishlariga nisbatan qashiliklari va buni istamasliklaridir. Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto'g'ri fikr, ular to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligi, nogiron bolalarning chegaralangan muhitda o'sganligi va boshqalardir. Hamjamiyatda ko'rinmaslik muammosining mazmuni shundaki, ko'pincha ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ota-onalar tomonidan qattiq bekitiladi. Ularni uyga qamab hyech kimga ko'rsatmaydilar, ro'yxatga olish jarayonida nogiron bolasi to'g'risida hyech bir ma'lumot berilmaydi. Natijada ko'plab nogiron bolalar hamjamiyatda ishtirok etishdan

mahrum bo'ladilar. Ular to'g'risida hech bir ma'lumotni bo'lmasligi ta'lim-tarbiya muassasalariga qatnamasliklariga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maktablar hamma uchun – Save the children – 2002y. 20\23 bet
2. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.
3. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiysiyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468474 P.
4. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi.// "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
5. Ziyo.net